



AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARINI ISHLAB CHIQUISH YO'LLARI

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a61

*Abdullayev Axror Jaxbarovich -
Raimova Durdona Durdibay qizi -
Toshkent davlat transport universiteti*

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda kichik va o'rta biznes sohasidagi vaziyat, xususan, avtomobil transporti bilan bog'liq vaziyat keltirilgan. Ushbu sektorning xususiyatlari, iqtisodiyot, uning investitsion faolligi, shuningdek, rivojlanish istiqbollari, yuk tashish bilan shug'ullanuvchi kichik avtotransport tashkilotlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, avtomobil transporti, iqtisodiyot, rivojlanish istiqbollari, yuk va yo'lovchi tashish, tadbirkorlik faoliyati, kapital qo'yilma, yalpi ichki mahsulot.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРИОРИТЕТНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ АВТОМОБИЛЬНОГО ТРАНСПОРТА

*Абдуллаев Ахрор Жахбарович -
Раимова Дурдона Дурдибай кизи -
Ташкентский государственный транспортный университет*

Аннотация. В статье представлена современная ситуация в сфере малого и среднего бизнеса, в частности, ситуация, связанная с автомобильным транспортом, особенности данного сектора экономики, его инвестиционной активности, а также перспективы развития малого рассмотрены автотранспортные организации, осуществляющие перевозки грузов.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, автомобильный транспорт, экономика, перспективы развития, грузовые и пассажирские перевозки, деловая активность, капитальные вложения, валовой внутренний продукт.

WAYS OF DEVELOPMENT OF PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE SPHERE OF ROAD TRANSPORT

*Abdullaev Akhror Jakhbarovich -
Raimova Durdona Durdibay qizi -
Tashkent State Transport University*

Abstract. The article presents the current situation in the field of small and medium-sized business, in particular, the situation related to road transport, the characteristics of this sector of the economy, its investment activity, as well as the development prospects of small road transport organizations engaged in cargo transportation are considered.

Key words: small and medium-sized business, road transport, economy, development prospects, cargo and passenger transportation, business activity, capital investment, gross domestic product.

Kirish. Zamonaviy bozor sharoitida raqobat ko'plab yirik, o'rta va kichik kompaniyalar tomonidan sezilarli darajadagi amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlar jahon statistikasi shuni ko'rsatadi-ki, taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes milliy mahsulotning taxminan 50 %ini tashkil qiladi. Misol uchun, o'rta va kichik nisbatda AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotidagi tadbirkorlik faoliyatidagi ulushi – 50 dan 54 %gacha, Yaponiyada taxminan – 55 %, Fransiya taxminan – 60 %. Ko'proq dunyo bo'ylab xususiy kompaniyalarning 65 foizi, taxminan, kichik biznesdir, ularning 10 foizi transport sohasida faoliyat yuritadi.

Yildan yilga O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalar soni ham ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash faoliyatining ustuvor yo'nalishlari muhim vazifalardan biridir. Haqiqatan

ham, birinchi navbatda, rivojlanishning ushbu bosqichi kichikligi bilan bog'liq.

Tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyoti uchun asosiy potensial "o'sish nuqtasi" sifatida tan olingan. Gap shundaki, bu bozor iqtisodiyotiga mo'ljallangan qator jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qiladi.

Kichik o'rta biznes sektorining eng asosiy xususiyatlari:

- boshqaruvni markazlashtirish va shaxsiylashtirishning yuqori darajasi;
- kam sonli xodimlar;
- ustav kapitalining kichik miqdori, aktivlar miqdori, shuningdek hajmi aylanma moliyaviy sharoitda tashqi muhitga yuqori darajada qaramlik;
- muassasalar, yirik tashkilotlar, shahar hokimligi, kompaniyalar, maslahat xizmatlarini ko'rsatish va shu kabilar [1].

Kichik va o'rta biznesning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- biznesni tashkil etish va yuritishning qulayligi (byurokratiyani kamaytirish);
- boshlang'ich kapital qo'yilmalarning minimal miqdori uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi resurslarning kichik miqdori;
- tadbirkorlik faoliyati;
- kapital qo'yilmalarning ancha tez qoplanishi;
- talabning o'zgarishiga tezda javob berish va moslashish qobiliyati;
- innovatsion texnologiyalarni, jumladan, transport xizmatlari va logistika sohasida samarali joriy etish va qo'llash qobiliyati;
- kichik jamoa xodimlari o'rtasida ishlashga yuqori motivatsiya [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga qadar "tadbirkorlik" tushunchasini yoritish va uni ilmiy jihatdan asoslash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ilk bora iqtisodiyot ta'limotlariga tadbirkorlik tushunchasi ingliz iqtisodchisi R.Kantilon tomonidan kiritilgan. R.Kantilon tadbirkorlik faoliyatini o'rganishga ilmiy yondashuvlarni shakllantirgan va uning "Savdo qilish to'g'risida bitiklar" deb nomlangan asarida bayon etilgan. R.Kantilon mazkur asarida: "Tadbirkor xavf-xatar ostida savdo faoliyatini yuritib, o'z korxonasiga ega bo'lgan va raqobat asosida faoliyatini yurituvchi shaxs hisoblanadi" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, tadbirkor noaniq daromadga ega kishilar (dehqon, hunarmand, savdogar va boshqalar) sababi ular boshqalarning mahsulotlarini ma'lum narxlarda sotib oladilar va o'z mahsulotlarini qanchaga sotishlari noma'lum, deb hisoblaydi [3].

Fransuz iqtisodchisi J.B.Sey tadbirkorlik faoliyatini o'z tavakkalchiligi va mablag'lari asosida ma'lum bir mahsulotni kapital, mehnat va tabiiy boyliklardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishga kirishgan shaxs, deb ta'riflaydi [4].

Keyinchalik yana bir fransuz iqtisodchisi va davlat arbobi A.Tyurgo ilk bora tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarish vositalarini asosiy omil sifatida ko'rib, tadbirkorlik faoliyatini nafaqat riskka asoslangan kapital qo'yilmalar tashkil etishi, balki ma'lum boshqaruv qobiliyatlarini talab qiladi, deb hisoblaydi [5].

Shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va asoslari" nomli asarida tadbirkorni ma'lum bir foyda ko'rish maqsadida tijorat g'oyasini amalga oshiruvchi shaxs, deb ta'riflaydi va shuning uchun tadbirkorlik faoliyatidan ko'rilgan foyda avval amalga oshirilgan riskning mukofoti, deb ta'riflaydi [6].

Ingliz iqtisodchisi D.Rikardo tadbirkorni o'z mablag'larini daromadli faoliyatga yo'naltira oladigan investor yoki oddiy kapitalist sifatida ta'riflaydi [7].

Ingliz iqtisodchisi A.Marshall ilk bora tadbirkorlarni yuqori malakali insonlar sifatida ko'rib, ular o'zlarini xavfqa qo'ygan holda jamiyatning

ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat ko'rsatishadi, deb ta'riflaydi [8].

Nemis olimi V.Zombertning ta'rifiga ko'ra: "Tadbirkor – riskka tayyor bo'lgan, ruhiy erkin, g'oyalarga boy, tirishqoq va intiluvchan ko'p insonlarni umumiy faoliyat uchun birlashtira oladigan tashkilotchi", – deb ta'riflaydi [9].

R.Xizrich va M.Piters tadbirkorlik faoliyatining nazariy jihatlarini tadqiq etgan holda quyidagi ta'rifni taklif etishgan: "Tadbirkorlik bahosi bo'lgan yangi mahsulotni yaratishdir, tadbirkor esa mazkur faoliyatga barcha kuchini sarflagan holda yuzaga keladigan riskni angelaydigan inson" [10].

Keyinchalik Avstriyaning iqtisodiy maktabi vakillari L.Fon Mizes va F.Xayek, Y.A.Shumpeterning ta'limotlarini chuqur o'rgangan holda tadbirkorlikni resurs sifatida qarashadi, ammo tabiiy resurslar uchun foydasi kamligini e'tirof etgan [11].

Hozirgi kunda respublikamizda kichik biznesni tasniflashni takomillashtirish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholash, iqtisodiyot va mulk sektorlari rivojlanishidagi o'zaro aloqalar hamda nomutanosibliklarni aniqlash, kichik biznesni rivojlantirishdagi institutsional o'zgarishlarni ilmiy tahlil etgan holda ustuvor yo'nalishlarini aniqlash kabi ilmiy-nazariy muammolar, kichik biznes genezisi va rivojlanish qonuniyatlarini antimonopol siyosat, raqobatchilik muhiti va mexanizmlari bilan bog'liqlikda tizimli tahlil etish, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti barqarorligini baholashda samarali qo'llanilayotgan usul va modellar yordamida respublikamizda kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlaridagi rivoji hamda istiqbollarni baholash, kichik biznes subyektlari uchun iqtisodiyot tarmoqlari jozibadorligini zararsizlik tahlili yordamida aniqlash, kichik biznes subyektlari "hayotiy davrini" uzaytirish, ularni barqaror va mutanosib rivojlanishini monitoring qilib borishni ta'minlaydigan qo'shimcha statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, respublikamiz mintaqalarida kichik biznes rivojlanishi tendensiyalarini aniqlash kabi ilmiy-amaliy muammolarni hal qilish va amaliy tatbiq etishga haqiqiy zarurat tug'ilmoqda.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonunosti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2019-yil 1-fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-sonli farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda "Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi" olindi.

Shuningdek, mazkur farmonlarda belgilangan iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mav-

qeyini yanada kuchaytirish, avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan taklif va tavsiyalar hamda tegishli statistik ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlashda zamonaviy statistik usullar va kuzatuv-

lar, qiyosiy va tizimli, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Davlat tomonidan ko'p sonli imtiyozlarning mavjudligi, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlantirish uchun zamin yaratdi va kichik kompaniyalar sonining o'sishiga sabab bo'lmoqda.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi


Manba: O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasmdan ko'radigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi yildan yilga o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Sanoat tarmoqlari 2019-yilda 83344,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2021-yilga kelib 121719,2 so'mga teng bo'lgan, ya'ni 46 %ga o'sgan. Qurilish sohasi 2021-yilda 2019-yilga nisbatan 44 %ga, 2020-yilga nisbatan esa 22 %ga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning savdo tarmoqlari 2019-yilda 138920,7 mlrd. so'mga, 2020-yilda 164106,1 mlrd. so'mga va 2021-yil 204787,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan. Xizmatlar sohasi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 27 %ga oshgan, ya'ni 2020-yilda 114052,7 so'mga va 2021-yilda 144812,7 so'mga teng bo'lgan.

2020-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi 53,9 %ni tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %ni, kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 15,6 birlikni tashkil qildi. 2020-yilning yan-

var-dekabrida 93,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 foizga ko'p demakdir. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 35213 ta, sanoatda 18596 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 14969 ta, qurilishda 6009 ta, yashash va ovqatlanishda 5637 ta, tashish va saqlashda 2397 ta tashkil etilgan.

2021-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi 54,9 %ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 16,5 birlikni tashkil qildi. 2021-yilning yanvar-dekabrida 98,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 foizga ko'p demakdir. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 38459 ta, sanoatda 19285 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 11710 ta, qurilishda 6330 ta, yashash va ovqatlanishda 6621 ta, tashish va saqlashda 2642 ta tashkil etilgan [12].



	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
■ Yo'lovchi tashish. mln.kishi	5 591,3	5 852,8	5 915,2	5 248,5	5 914,2
■ Yuk tashish. mln.t	1 013,1	1 102,2	1 177,7	1 238,2	1 282,0

2-rasm. Avtomobil transportida yo'lovchi tashish hajmi

Manba: O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-rasmda keldirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,9 %ni tashkil etib, bu esa 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,8 %ga pasayishiga olib keldi. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,1 %ni tashkil etib, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,6 %ga pasayishi kuzatildi. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,8 %ni tashkil etib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 %ni tashkil qildi. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,2 %ni tashkil etib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,4%ni tashkil qildi.

Avtomobil transportida yuk tashish hajmi 2019-yilda 1177,1 mln. t, 2020-yilda 1238,2 va 2021-yilda 1282,0 mln. tonnaga teng bo'gan. 2017-yilda avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,3 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 77,9 foizi) ko'payishi ta'minlandi. 2018-yil avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,0 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 80,1 foizi) ko'payishi ta'minlandi. 2019-yil avtomobil transporti yuk aylanmasining 7,4 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 77,4 foizi) ko'payishi ta'minlandi. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 52,4 %ni tashkil etdi. 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 %ni tashkil qildi. 2020-yil

yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 76,2 %ni tashkil etgan bo'lib, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 %ni tashkil qildi. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 73,4 %ni tashkil etgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoning 26, 39-maqсадlarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish mo'ljallangan. Kichik va o'rta biznes korxonlari investitsiya faoliyati samaradorligi ko'plab tashqi va ichki omillarga bog'liq.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqiga Murojatnomasida: "Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak. Bugungi

kunda dunyoda sodir bo'layotgan keskin jarayonlardan barchangiz xabardorsiz. Jahonda murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya resurslari tanqisligi kuchayib bormoqda, oziq-ovqatga ehtiyoj ortib, moliyaviy resurslar qimmatlashmoqda. Bunday vaziyatda, qanchalik og'ir bo'lmasin, iqtisodiy islohotlarni qat'iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo'llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo'yicha islohotlarni jadallashtiramiz", – deb ta'kidlab o'tdi. Samaradorlik darajasining pasayishi kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatida quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqaradi:

- rahbarlik malakasining yetarli darajada emasligi;
- bozor konyunkturasining beqarorligi bilan bog'liq bo'lgan xavfning sezilarli darajasi;
- moliyaviy resurslarning yetarli emasligi;
- moliyaviy resurslarni qarzga olish cheklolari;
- garov ta'minoti yo'qligi sababli kredit olishda qiyinchiliklar;
- moliyalashtirishning tartibsizligi;
- ko'pincha aniq moliyaviy rejalarning yo'qligi va nomutanosiblik [13].

Xulosa va takliflar. Avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishining xalqaro tajribalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes, birinchi navbatda, ma'muriy nazoratga emas, balki moliyaviy va iqtisodiy

qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Shunday ekan, avtomobil transporti sohasida kichik biznes uchun davlat kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat kafolatlari o'zida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni tizimli ravishda amalga oshirishi, shuningdek, investor hisoblangan va yuridik shaxslar ro'yxatidan o'tishidan qat'iy nazar investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini yaratishi kerak. Ushbu tizimning samarali ishlashi, o'z navbatida, mintaqa hududida investitsion faoliyat olib borayotgan barcha investorlarga taqdim qilinadi.

Avtomobil transporti sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida to'plangan ilg'or xorijiy va respublikamizda to'plangan tajribalarni umumlashtirgan holda kelgusida mazkur sektorni yanada rivojlantirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- avtomobil transporti sohasida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy, axborot, huquqiy, kadrlar va moliyaviy ta'minlash borasidagi institutsional asoslarini yanada takomillashtirish;
- avtomobil transporti sohasida davlat va jamoat tashkilotlari, xususiy sektorning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish;
- yirik va kichik biznesning o'zaro samarali hamkorlik sohasi sifatidagi sanoat hududlarini tashkil etish va ular faoliyati samaradorligini oshirish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Балашова Е.А. Основные черты, преимущества и недостатки деятельности субъектов малого бизнеса. // Вестник ОмГУ. Серия: Экономика. 2010. № 2.
2. Баркин Д.Е., Воробьева В.В. Особенности инвестиционной деятельности малых промышленных предприятий. // Ученые записки РГСУ. 2011. № 6.
3. Кантильон Р. Очерк о природе торговли вообще. Ч. 1, гл. 13. // Мировая экономическая мысль Т. I. С. 273-276. <https://oll.libertyfund.org/title/higgs-essay-on-the-nature-of-trade-in-general-higgs-ed>.
4. Сэй Ж.Б. Трактат по политической экономии. Фредерик Бастиа. Экономические софизмы. Экономические гармонии. – М.: Дело, 2000. – 232 с.
5. Тюрго А.Р.Ж. Избранные экономические произведения. / А.Р.Ж. Тюрго. – М.: Директ-Медиа, 2007. – 171 с.
6. Шевелев С.Ю., Шевелева Е.А., Кропотова Л.А. Развитие предпринимательства в России: организационные, правовые и экономические аспекты. Монография. – Санкт-Петербург: издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. С. 88-90.
7. Рикардо Д. Сочинения. / Д.Рикардо. 1995. – Moscow. С. 82.
8. Marshall A. Principy jekonomicheskoy nauki. – M.: Direkmedia Publishing, 2007.
9. Zombart V., Davydov Ju.N., Sapov V.V. Burzhua: Jetjudy po istorii duhovnogo razvitija sovremennogo jekonomicheskogo cheloveka. Nauka, 1994.
10. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство или как завести собственное дело и добиться успеха. В 5 вып. Пер.с англ. Вып. 1-5. 1991. – 974 с.
11. Светульников М.Г., Светульников С.Г. Предпринимательство и инновации. – Ульяновск: УЛГТУ, 2010. С. 239.
12. stat.uz internet sayti.
13. Холодова А.О. Меры государственной поддержки малого и среднего предпринимательства. / М.П.Улитский, А.О. Холодова. // Вестник Университета (ГУУ). – М., 2015. № 10.